

## IJTIMOY TARMOQLARNING YOSHLAR ONGIGA IJOBİY VA SALBIY TA'SIRI HAMDA UNING HUQUQIY OQIBATLARI

*AQXAI Yurisprudensiya 1-108-guruh talabasi  
G'ulomova Nozima G'ofur qizi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning yoshlarimiz ongiga yetkazayotgan ijobiy va salbiy ta'siri haqida so'z boradi. Internetning shiddat bilan rivojlanayotgani mamlakatning kelajagini ham belgilab beradi.

**Kalit so'zlar:** Internet, axborot, Konstitutsiya, firibgarlik, yoshlar, huquqbuzarlik, Jinoyat kodeksi, MJTK, jarima.

### ПОЗИТИВНОЕ И НЕГАТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА СОЗНАНИЕ МОЛОДЕЖИ И ИХ ПРАВОВЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

**Аннотация.** В данной статье говорится о положительном и отрицательном влиянии использования социальных сетей на сознание нашей молодежи, Стремительное развитие Интернета также определяет будущее страны,

**Ключевые слова:** Интернет, информация, Конституция, мошенничество молодежи, правонарушение, Уголовный кодекс, наказание.

### POSITIVE AND NEGATIVE EFFECTS OF SOCIAL NETWORKS ON THE MINDS OF YOUNG PEOPLE AND THEIR LEGAL CONSEQUENCES

**Abstract.** This article talks about the positive and negative effects of the use of social networks on the minds of our youth. The rapid development of the Internet also determines the future of the country.

**Key words:** Internet, information, constitution, fraud, youth, offense, criminal code, penalty.

**Kirish.** Bugungi kunimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Negaki, ijtimoiy tarmoq hayotimizning bir qismiga aylandi va undan vos kechish esa imkonsiz. Buni keragi ham yo'q, sababi internet hayotimizdagi har bir daqiqamizni yengillashtiradi, xabarlar almashinuvini, onlayn arizalar va murojaatlar qabulini osonlashtiradi.

Avvalo, Internetning bugungi hayotimizga qanday ta'sir etayotgani haqida gapirsak. Internet (lotincha :inter-aro va net-tarmoq) so'zlaridan olingan bo'lib mukammal darajadagi axborotlarni almashish va barcha insonlar ulardan foydalanishi uchun ochiq ma'lumotlar to'plami hisoblanadi. Internetni ijobiy va salbiy tomonlari

juda ko'p muhokamalarga sabab bo'ladi. Ijobiy va salbiy tomonlari haqida alohida to'xtalib o'tsak. Salbiy taraflari haqida gapirsak juda ko'p sabablarni keltirsak bo'ladi. Butunjahon tarmoq yoki internet butun dunyoni inqilob qilgan texnologiya elementidir. Internet tufayli bizning fikrlash, biznes boshqaruv va yuritish, muloqot qilish, bilim olish, savodxonlik va o'z fikrimizni ifodalash usullari tubdan o'zgarib ketadi. Barcha insonlar internet orqali axborot olishadi. Dastlab axborot nima? degan savolga javob berish lozim. Axborot bu inson sezgi organlari orqali qabul qilinadigan barcha ma'lumotlarga aytiladi. Bu haqida esa O'zbekiston Respublikasining bir qancha qonunchilik hujjatlarida to'liq bayon etilgan. Ya'ni Konstitutsiyamizning 33-moddasida "...Axborotni olish izlash va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholi sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi" deyilgan. Internet tarmoqlarida haqorat qilganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik mavjud. Haqorat qilganlik -shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitganlik yoki beodoblik bilan qasddan tahqirlaganlik uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi MJTK 41-moddasi Haqorat qilishga bag'ishlanadi "Haqorat qilish ya'ni shaxsning sha'ni va qadr qimmatini qasddan kamsitish -BHMning 20 baravaridan 40 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi" deb aytilgan. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlarda firibgarlik yo'li bilan sodda insonlarni pullarini o'zlashtirayotgan shaxslar ham yo'q emas. Tovlamachilik esa mulkka qarshi g'arazli jinoyatlardan biri hisoblanadi. Bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o'g'rilik jinoyatlarining ijtimoiy xavflilik darajasi Jinoyat kodeksining 15-moddasida berib o'tilgan. MJTKning 155-moddasida Axborotdan foydalanish qoidalarini buzish haqida aytilgan. "o'zganing elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturi yoki ma'lumotlar bazasini o'z nomidan chiqarish yoxud qonunga xilof ravishda undan nusxa olish yoki bunday asarlarni tarqatish –fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa –uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi" deyilgan. Axborotni oshkor qilish - qimmatli qog'ozlar bozorida manfaatdor shaxslarning axborotni qaysi maqsadda olishidan qat'i nazar, mazkur axborotdan uning topilishi va olinishini kafolatlaydigan shakllarda foydalanilishini ta'minlash tushuniladi.

Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy taraflarini sanasak juda ko'p, lekin tangani ikkinchi tomoni ham bor deganlaridek ijobiy taraflari ham yo'q emas. Bularga to'xtalib o'tadigan bo'lsak. Ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z biznesini ochib, uni rivojlantirib talaygina daramad orttirishadi. Ba'zi uzoqda hal bo'ladigan ishlarni onlayn internet

orqali tezda bitirish mumkin, onlayn kutubxona ham tashkillashtirsa bo'ladi, chet davlatlardan pul o'tkazmalarini amalga oshirsa bo'ladi va hokazo.

### **Xulosa.**

Asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan mobil qurilmalar hozirgi davrga kelib insoniyatga juda katta ta'sir etmoqda. Albatta yaxshi yoki yomon ta'sir etishi bu insonning huquqiy ongi va madaniyatiga bog'liq. Negaki, "guruch kurmaksiz bo'lmaydi" deganlaridek xalqimizdagi insonlar bir xil emas. Ular orasida ezglikni ham yovuzlikni ham o'ylovchilar bor va ular o'z niyatlariga erishish yo'lida hech narsadan tab tortishmaydi. Jamiyatimizni rivojlantirishda ko'proq kitob o'qib o'z savodxonlik darajasini oshirishlari kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent – 2023
2. Fuqarolik Kodeksi T. Yuridik adabiyotlar publish -2022-yil
3. Konstitutsiyaviy huquq darslik .Husanov.O.T 2020-2021-yil Yuridik adabiyotlar publish 2020-2021-yil
4. Jinoyat Kodeksi
5. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks
6. Kun.uz rasmiy internet sayti
7. Norma- axborot huquqiy portali
8. Norma,uz sayti
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent- 2023